

**O'ZBEKISTON OLIMLARINING TOPONIMIKA FANIGA  
QO'SHGAN HISSASI**

*Mamatvaliyeva Madina*

*Mirzayeva Muhlisa*

*Ashirov Zohid*

*Qo'qon davlat pedagogika institute tabiy fanlar fakuliteti geografiya va  
iqtisodiy bilim asoslari yo'nalishi 3-bosqich*

*Annotatsiya: Ushbu maqolada toponimika fani, rivojlanish bosqichlari, O'zbekiston olimlari toponimika faniga qo'shgan hissasi , qilgan ishlari va ularning asarlari haqida ma'lumot berilgan.*

*Kalit so'zlar: toponimika, fanning rivojlanish bosqichlari , o'zbek olimlari*

**Kirish**

Toponimika geografik nomlar , kishi ismlarini o'rganadigan fan sifatida maydonga keldi. Toponimikani “ zamin tili” , ya'ni, yer tili deb ham atashadi. Toponimika atamasi yunon tilidan olingan bo'lib, “topos”- joy, “ onom ” yoki “onima” - nom. umuman, joy nomini o'rganadigan fan degan ma'noni bildiradi[1]. Toponimika yer yuzidagi barcha jismlar , tirik organizmlar , joylar , turli xil hodisa va boshqa atamalar nomini , ma'nosini o'rganadi. Toponimika fani barcha fanlar bilan aloqadorlikda rivojlanadi. Bu fan barcha fanlarni qamrab oladi. Barcha fanlarda atamalar , joy nomlari va turli xil qadimgi va yangi so'zlar bor. Bu so'zlarni o'rganish mobaynida albatta toponimika faniga murojat qilishadi. Fanning yoki o'sha fandagi so'z va atamalarni bilmasdan turib u fanni o'rganish imkoni yo'q. Bundan ko'rinib turibdiki toponimika fani juda ahamiyatli fan hisoblanadi. Bu fan kelib chiqishidan hozirgacha rivojlanib kelmoqda. Bu davr ichida ko'plab olimlar toponimika fanini o'rganishgan va juda ko'p asarlar yaratishgan. Toponimika fani rivojlanish tarixi: Antik dunyo geograflari asarlarida joy nomlari. Ilk o'rta asr

olimlari asarlarida toponimik ma'lumotlar. Mahmud Qo'shg'ariy , Ibn Sino , Zahiriddin Muhammad Bobur. Hozirgi toponimikasining rivojlanishi H.Hasanov , T. Nafasov, S. Qoriyev va boshqalarning ishlari.[2]

Fanning rivojlanish bosqichlari qadimgi davrlardan hozirgi davrgacha ko'plab olimlar toponimika fanining kelib chiqishi va rivojlanib hozirgi kungacha kelishiga hissa qo'shishgan. Albatta O'zbek olimlar ham juda muhim ma'lumotlarni yozib qoldirganlar.

O'zbekistonda toponimika fanining va geografik atamashunoslikning rivojlanishida professor Hamidullo Hasanovning xizmatlari katta. Olimning "Geografik nomlari imlosi" (1962), "O'rta Osiyo joy nomlari tarixidan" (1965), "Geografik nomlar siri" (1985). "Yer tili"(1977). "Geografiya atamalari lug'ati" (1966). "O'rta Osiyolik geograf va sayyohlar" (1964), "Sayyoh olimlar" (1981) kabi asarlarida, ko'plab risolalari va maqolalarida O'rta Osiyoda, jumladan O'zbekistonda joy nomlarini o'rganishga qadimdan ahamiyat berib kelinganni qayd qilingan.[1] Uning izlanishlari va qimmatli asarlari hozirda ham o'rganilmoqda. Toponimika fanining tadqiqot metodlarini o'rganishda: toponimik tizimni bir bo'lagi bo'lgan nom turlicha ko'rinishda bo'lishi mumkin. Shu sababdan, nomlar majmuasining barcha o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olib tahlil qilinganda to'g'ri va samarali natijaga erishish mumkin. Demak, har qanday geografik obyekt nomining ma'no mazmunini aniqlash uchun uni har tomonlama o'rganish maqsadga muvofiq. Hamidulla Hasanov bu masalaga e'tibor qaratib: «har bir joy nomining bamisoli ikki tomoni bor sirti va ichki. Sirdan qaraganda har bir nom atoqli ot bo'lib ko'rinadi. Afrika, Grenlandiya, Xitoy, Misr. Parij singarilarning joy nomi ckanligi har kimga ham ayon. Ammo, nomning ichki tomoni ham borki, uni ko'rish uchun «rentgen»ga solish lozim: bu nom qayerda, nega shunday atalgan , qaysi tildan olingan? Joy nomining bu ichki xususiyatini har kim bilavermaydi, u faqat tadqiqotchiga muayassar bo'ladi», deb yozgan edi.[3]

Har bir so'zning ma'nosini va qayerdan yoki kim tomonidan paydo bo'lgani, bir so'z bilan aytganda so'zning tarixini va mazmunini bilish lozim. Toponimika

fani barcha fanlar uchun judayam muhim fan hisoblanadi. Olim yuqoridagi fikr orqali toponimika fanining ahamiyati kattalagini anglatadi.

Professor Hamidullo Hasanov «O'rta Osiyoda atoqli geograf olim va sayyohlar ozmuncha bo'lmagan, ular ajoyib asarlar yozganlar», deydi. U «O'rta Osiyolik geograf va sayyohlar» asarida (Toshkent, 1964) shu mintaqada tug'ilib o'sib ijod qilgan 28 allomaning geografiyaga, toponimikaga qo'shgan hissasi, sayohatlari haqida keng ma'lumotlar bergan.[4]

Amudaryoning qadimiy eroniy nomi Vaxsh (Vaxshob) boigan. Daryoning yirik irmoqlaridan biri hozir ham Vaxsh deb ataladi. Abu Rayhon Beruniy Vaxsh xorazmliklarda suv parisi — malak nomi deb yozgan. Professor H.Hasanov ma'lumotlariga qaraganda, Pokistonda Amudaryoni hozir ham Vakshu-nada deb atashar ekan. O'rta Osiyoda Vaxsh, Vaxshivar, Vaxshivardara degan bir nechta joylar bor. [4]

Geografik obyektlar qancha ko'p va xilma-xil bo'lmasin, ularda bo'layotgan o'zgarishlarni o'rganish, tahlil qilish, albatta, xalqning ijodiy mahsuli bo'lgan joy nomlarini aniqlash va o'rganishdan boshlanishi kerak. Chunki, nomlar obyektlarning geografik o'rni, tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotini hamda boshqa geografik tushunchalarni ifoda etish uchun ham zarurdir. H.Hasanovning iborasi bilan aytganda: «nomlar joylarga shunday moslab berilganki, mahalliy aholining zakovatiga qoyil qolasan kishi. Yangi tug'ulgan chaqaloqqa ot qo'yish oson. Chunki yuzlab tayyor ismlar bor, ulardan faqat o'zingizga ma'qulini tanlab olasiz. Ammo joy nomlari tayyor emas. Ularni «o'ylab topish» kerak, ismini jismiga monand qilish kerak», yoki «agar nomlar tarixi tilga kirsar, tog'lar va suvlarning xosiyati, o'simligu hayvonot turlari, savdo-sotiq, hunar-kasb, xazinalar, janglar-u e'tiqodlarimizning hammasi ayon bo'ladi».[5]

Ko'p yillar davomida olimlar orasida geografik nomlarni o'rganuvchi toponimika fanining o'rni bahs va munozaralarga sabab bo'lib, hozirga qadar bu masala uzil-kesil hal qilinmagan. Masalan, taniqli geograf H.Hasanov «Geografiya fanining bir sohasi - toponimika O'rta Osiyoda hali «bo'z» soha deb qayd qilgan» yoki boshqa asarida «Toponimika aslida geografiyaning bir tarmog'i bo'lib,

tilshunoslik faniga ham, tarix faniga ham uzviy bog'langan. Toponimikani tilshunoslik yoki tarix fanining bir tarmog'i desa xato bo'lmaydi. Har bir fan sohibi toponimik tadqiqotlarda o'z mutaxassisligini ustun qo'yadi» deb yozgan.[5]

Geografik nomlarni to'g'ri izohlash juda mushkul ish. Buning uchun H.Hasanov aytganidek, kamida «o'zbek tilini puxta bilish va qo'shni tillardan xabardor bo'lish kerak. Vatanimiz tarixini, qadimda o'tgan qabilalarni, aholining xo'jalik faoliyatini va albatta, har bir joyning geografik xususiyatlarini yaxshi bilish kerak. Ana shunday har tamonlama ma'lumotlarni bir-biriga solishtirib, qo'shib, joy nomining tarixini aniqlay olasiz».[5]

Hamidulla Hasanov ta'biri bilan aytganda. nomlarning o'z tarixi, xalq, qabila, tabiat, xo'jalik, hodisa va kashfiyotga mansubligi bor. Agar nomlar tarixi tilga kirsam, tog'larning va suvlarning xosiyati, o'simlig hayvonot turlari, savdo-sotiq, kasb-hunar. xazinalar, janglari e'tiqodlarimizning hammasi avon bo'ladi. Demak, toponimlar kishilik jamiyati rivojlanishining muhim elementlardan biri, tabiat, tarix, hayot va insoniyat ko'zgusi hisoblanadi. Shunday ekan, hozirgi jamiyatni, zamonaviy sivilizatsiyani, xalqlar va mamlakatlar o'rtasidagi har qanday aloqalarni geografik nomlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Madaniyat va ilm-fanning rivojlanishi, tobora avj olayotgan xalqaro aloqalar geografik nomlarni brogan sari ko'proq qo'llashni taqozo qilmoqda.[3]

Hamidulla Hasanov juda ko'p izlanishlar olib brogan. Uning ilmiy ishlari va toponimika fanlariga qo'shgan hissasi haqida kitob yozish mumkin. Biz talabalar uning asarlarini mutolaa qilmoqdamiz. Albatta u kabi kitoblar yarata olmasakda , uning hayotini va ilmiy merosini o'rganamiz. Toponimika fanini rivojlantiramiz.

“Tilshunos toponimistlardan professorlar 1 Nafasov, Z. Do'simov. dotsent N.Oxunov O'zbekistonda toponimikaning rivojlanishiga, toponimlarning nominatsion (nom lanish) qonunlarini ochib berishga salmoqli hissa qo'shdi va ko'plab joy nom larining etimologiyasini aniqlab berdilar. O'zbekistonda toponimika fanining rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shgan olimlardan biri-T.Nafasov O'zbekistonda birinchi bo'lib toponimikadan nom-ozodlik dissertatsiyasini himoya qildi. Keyinchalik. sohaga oid bir qancha risola,

maqolalar chop etdi. Uning “O‘zbekiston toponimlarining izohli lug‘ati”da (1988), asosan, Janubiy O‘zbekistondagi mikrotoponimlar etimologiyasi yoritilgan. Shu bilan birga mintaqadagi Boysun, K esh. Chag‘onyon, Qarshi kabi ba'zi tarixiy toponimlarga ham etimologik izoh berilgan”[1].

Undan tashqari “S.Nominxanov, E.Begmatov, T.Nafasov kabi o'zbek olimlari, turkiy tillar onomastikasida mo'g'ulcha va mo'g'ulcha – turkey so'zlar asosida yasalgan kishi ismlarni. etnonimlarni, toponimlarni tadqiq qilishgan. Masalan, T.Nafasov m o'g'ul va turkiy xalqlarning o'zaro yaqinligiga ishora qilib, mo'g'ul va turkiy tillarda mushtarak so'zlarning etnolingvistik tabiatini aniqlamasdan turib, ularni biror tilga mansubligini belgilash qiyin deb, hisoblaydi”. [3]

“O'zbekiston viloyatlari toponimiyasi orasida Qashqadaryo joy nomlari nisbatan mukammal o'rganilgan. Bu ishda qashqadaryolik taniqli nomshunos olim To'ra Nafasovning xizmatlari beqiyos. Olim butun umrini janubiy O'zbekiston, jumladan Qashqadaryo viloyati toponimlarini o'rganishga bag'ishlagan. Viloyat Qashqadaryo havzasida va Pomir-Oloy tog'larining g'arbiy chekkasida joylashgan. Relefining katta qismini tekislik va cho'li-biyobonlar tashkil qiladi. Shimoli-sharq va janubi-sharqdan Zarafshon tizmasining (Qoratepa. Chaqalikalon) tarmoqlari hamda Iltis tizmasining (Yakkabog', Chaqchar, Ko'kbuloq, Qorasirt, Dehqonobod) tarmoq”. [3]

Qadimgi davrdan olimlar o'zlari yashab turgan joylari haqida ma'lumot yozib qoldirgan. Sayyohlar yurgan yo'lini yozib qoldirgan. Nafasov ham o'zi yashab o'tgan makonida ilmiy izlanishlar olib borib , O'zbekiston tarixi uchun va toponimika fani uchun juda ko'p ma'lumotlarni yozib qoldirgan. “Qashqadaryolik taniqli nomshunos olim To'ra Nafasovning yozishicha, nom tuzilishiga ko'ra turkiy qashqa va tojikcha daryo so'zlaridan iborat. Barcha turkiy tillarda hayvonlar peshonasidagi belgi. nishona yoki kinoyali ma'noda hamma biladigan. dong'I chiqqan, taniqli, ma'lum va mashhur ma'nolarini anglatadi. Belgi bildiruvchi qashqa so'zining areali ancha keng. bu so'zning qadimiyligini bildiradi. O'rta Osiyodan

tashqari Ural, Sibir. Kavkaz. Volgabo'yi va boshqa hududlarning joy nomlari tarkibida qashqa so'zi uchraydi”.[3]

To'ra Nafasovning toponimika faniga hissasini quyidagi fikridan ham bilib olishimiz mumkin:“...qadimiy geografiya fani bag'rida paydo bo'lgan yangi yo'nalishlardan biri toponimikadir. Toponimiva bilan azal-azaldan geograflar, geografiya fani shug'ullanib kelgan. So'ngra bu soha bilan tarixshunoslar. arxeologlar qiziqib, nomning tarixiy voqea-hodisalar bilan bog'liqligi, ularning ma'nosi, qaysi tilga mansubligi kabi masalalarni tadqiq qilishdi. Eng so'ngida toponimiya tilshunoslikning tadqiqot obyektiga aylandi”[3]

Yana O'zbekiston olimlaridan “Z. Do'simov Xorazm toponimiyasini o'rganib, joy nomlarining tarixi va etimologiyasi, ularning lingvistik xususiyatlari, modellari va tiplarini aniqlash sohasida ishladi. “Xorazm toponimlari” monografiyasida (1985) Xorazm toponimlarining shakllanishi va ularning taraqqiyot bosqichlarini tadqiq qildi”.[1]

Taniqli olim Z.Do'simovning yozishicha, antroponimlaming toponimga aylanishida shaxs va obyekt munosabati muhim rol o'ynaydi, Avvalo biror hududdagi kishilar yoki shaxsning jamiyatda tutgan o'rni muhim belgi bo'lib xizmat qiladi. Bu belgilar turlicha ifodalanishi mumkin, kishilarning kasbi, mashg'uloti, mansabi, etnik taaluqliligi. laqabi kabi qator individual turlarda aks etadi.[3]

“Farg'ona viloyati toponimlarining tuzilishi. tarkibi, yasalişini chuqur o'rgangan olim N.Oxunov, viloyat oykonimlarini tuzilishiga ko'ra ikki turga bo'lgan: sodda va qo'shma. Sodda nomlar tarkibida -chi (Sandiqchi), -li (Yong'oqli), -liq (Qnduqliq), -lik (Misgarlik), -obod (Amirobod). -zor (Bodomzor) singari topoformantlar qatnashadi. Olimning yozishicha, soda nomlarning bir qismi tub so'zlar. asosiy qismi esa yasama so'zlarning toponimlashuvi bilan vujudga kelgan”.[3]

Professor Suyun Qorayev chek so'zini vodiv viloyatlarida bir- necha ma'noni anglatishini aniqlagan: a) bir tanobni uchdan bir qismi; b) janioa yerlari taqsimlanayotganda qur'a (chek) tashlash vaqtida yutilgan yer maydoni; v) xon yerlaridan olinadigan ulush; g) xonning o'g'li, bek va boshqa amaldorlarning chek

yeri (cheki xos); d) bir paykal sholipova. Yusufxo'jachek. Qo'shchek, Yuziyachek, Cheki Nasriddin va boshqalar chek komponentli toponimlarga misol bo'ladi.[3]

Xalq tabiiy geografik terminlari, ularning paydo bo'lishi, shakllanish xususiyatlari, tarqalish areallari, manbalari, ilmiy va o'quv adabiyotlarga kiritish tamoyillari kabi masalalar M.Mirakmalov tomonidan o'rganilgan. Keyinchalik hududiy toponimika sohasida bir qator ilmiy-tadqiqot ishlari bajarildi. Masalan, T.Nafasov-Qashqadaryo toponimiyasini, Sh.Qodirova-Toslikent mikrotoponimlarini. Z.Do'simov–Xorazmni, Y.Xo'jamberdiyev-Surxondaryo, T.Rahmatov - Samarqand. S.Gubayeva va N.Oxunov - Farg'ona vodiysi, A.Zokirov-Jizzax.K.Abdimuratov - Qoraqalpog'iston respublikasi, S.Naimov - Buxoro viloyati toponimiyasini tadqiq qilgan.[3]

Respublika joy nomlarining kelib chiqishi tarixini va millat, qabila, elat, urug'-aymoq nomlarining kelib chiqish tarixini (etnogenezini) hamda geografiyaga oid atam alami o'rganishda Y.G'.G'ulomov, R. N. Nabiyev, A. R. Muhammadjonov, F. Abdullayev, S. Ibrohimov, O'zbekistonda birinchi toponimik kartoteka tuzishda ishtirok etgan H. T. Zarifov, etnograflar - E. Fozilov, M. Shoabdurahmonov, X. Doniyorov, R. Qo'ng'irov, geograflar - H. Hasanov, S. Qorayev kabilarning ishlari diqqatga sazovordir. [1]

Xulosa qilib aytganda O'zbekiston olimlari toponimika faniga juda katta qo'shgan. Ayniqsa O'zbekiston toponimlarini o'rganishgan. Ularni barcha asarlarini o'rganib, ularni fikrlari oz bo'lsada qilgan ishlarini izlanishlarini yig'ib manba tayyorladik. Ularning ilmiy merosini kelajak avlodga farzandlarimiz va o'quvchilarimizga yetkazamiz. Yuqorida keltirilgan olimlarning qilgan ishlari va izlanishlari haqida yozsak varoqlar yetmaydi. Albatta biz ham ular kabi harakat qilamiz. Toponimika faniga oz bo'lsada hissa qo'shamiz.

## **FOYDANILGAN ADABIYOTLAR**

1.Zohid Madrahimov “TARIXIY TOPONIMIKA” (o'quv qo'llanma) «Navro'z» nashriyoti Toshkent 2017

2.Xalimov Rabbim Xalimovich “Toponimika fanidan geografiya yo’nalishi talabalari uchun O’quv uslubiy majmua” Samarqand 2009

3.Hakimov Q. M., Mirakmalov M.T. “TOPONIMIKA” (DARSLIK) Toshkent «Tafakkur avlodi» 2020

4.Suyun Qorayev “TOPONIMIKA” O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi Muvofqlashtiruvchi Kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan

O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti Toshkent — 2006

5.F.S.Meliboyeva ,M.O.Vohidova , A.S. Anorboyeva “TOPONIMIKANING GEOGRAFIYADAGI O’RNI” 2023

6. F.S.Meliboyeva, M.Q.Mirzayeva “Afrika materigining geografik o'rni va o'rganilish tarixi” mavzusini o'qitishda didaktik o'yinlardan foydalanish- Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi, 2023 - tadqiqotlar.uz

7.Qo'chqor Hakimov "Toponimika".Toshkent "Mumtoz so'z".2016

8.F.S.Meliboyeva,Z.Z.Ashirov G.F.Jaxongirova “GEOGRAFIYA DARSLARIDA IJODIY O‘YINLARDAN FOYDALANISH” 2023

9. F.S.Meliboyeva F.K.Otajonova M.Q.Mirzayeva “UMUMTA`LIM MAKTABLARI “TABIY GEOGRAFIYA” KURSLARIDA GIDROLOGIK ATAMALARDAN FOYDALANISH 2023

10.F.S.Meliboyeva M.Y.Ergasheva Sh.A.Aliyeva “MAKTAB GEOGRAFIYA DARSLARIDA TOPONIMIK MA’LUMOTLARDAN FOYDALANISH

11.F.S.Meliboyeva., M.A.Mamatvaliyeva GEOGRAFIYA DARSLARIDA “ZAMONAVIY EKOLOGIK MUAMMOLAR” MAVZUSINI O‘QITISHDA INTERFAOL METODLARNI QO‘LLASH

12.F.S.Meliboyeva., G.F.Jaxongirova., Sh.Q.Ergashboyeva UMUMTA`LIM MAKTABLARINI 8-SINF GEOGRAFIYA DARSLARIDA “TRANSPORT GEOGRAFIYASI” MAVZUSINI O‘QITISHDA KO`RGAZMALI QUROLLARDAN FOYDALANISH